XALQ DEPUTATLARI DO‘STLIK TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 30 - oktabr VI-46-120-3-47-K/23 Do‘stlik tuman hokimligi

Tumandagi ayrim nomsiz ko‘chalarga yangidan nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining va O‘zbekiston Respublikasi Istisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2023-yil 31-avgustdagi 11145-sonli ekspert xulosalarini, shuningdek 2023-yil 4-sentabrdagi 08-06817-sonli xatini inobatga olib, tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to‘g‘risidagi taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Do‘stlik tuman kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumandagi ayrim nomsiz ko‘chalarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman hokimligi kiritgan takliflari ma’qullansin.

2. Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi, davlat kadastrlar palatasi Do‘stlik tuman bo‘limi (B.Asatullaev), tuman qurilish bo‘limi (A.Tinchlikov), hamda tegishli mutasaddi davlat organlari amaldagi tartibda nom berilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Qosimov) aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari aholisining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarining tashkiliy ravishda amalga oshirilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilasin.

5. Mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga;

- aholi punktlarining tarkibiy qismlari yangidan nomlanayotganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

- tuman yo'llardan foydalanish davlat muassasasi (Z.Qulbekov) va Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Muxtorov) bilan hamkorlikda hududlarda yangidan nom berilayotgan ko‘chalarga nomlari qayd etilgan metall ko‘rsatkichlar o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (B.Qoraev)ga, mazkur qaror chiqishi munosabati bilan «Do‘stlik hayoti» gazetasida chop etish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik, ta’lim , sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Tangyariqov)ga, shuningdek qaror ijrosini ta’minlash Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **SH.Darvishev**

Xalq deputatlari Do‘stlik tuman
Kengashining
2023-yil 30-oktabrdagi
VI-46-120-3-47-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi mavjud nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha tuman geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari boyicha ishchi guruhning kiritgan takliflari

№	Geografik obektning turi	Geografik obektning bog‘lanishi	Geografik obektning amaldagi nomi	Geografik obektga taklif qilingan nom
1	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz	Zamin 1-tor
2	Tor ko‘cha		Nomsiz	Zamin 2-tor
3	Tor ko‘cha		Nomsiz	Zamin 3-tor
4	Tor ko‘cha		Nomsiz	Zamin 4-tor
5	Tor ko‘cha		Nomsiz	Zamin 5-tor
6	Tor ko‘cha		Nomsiz	Zamin 6-tor
7	Ko‘cha	Oltin vodiy mahallasi	Nomsiz	Orzu
8	Berk ko‘cha	Qahramon mahallasi	Nomsiz	Fidokor 1-berk
9	Berk ko‘cha		Nomsiz	Fidokor 2-berk
10	Tor ko‘cha		Nomsiz	Mirtemir 1-tor
11	Berk ko‘cha		Nomsiz	Mirtemir 2-berk
12	Ko‘cha		Nomsiz	Obodyurt
13	Tor ko‘cha		Nomsiz	Obodyurt 1-tor
14	Tor ko‘cha		Nomsiz	Obodyurt 2-tor
15	Tor ko‘cha		Nomsiz	Samarqand 1-tor
16	Tor kocha’	Sanoatchilar mahallasi	Nomsiz	Lolazor 1-tor
17	Tor ko‘cha		Nomsiz	Lolazor 2-tor
18	Tor ko‘cha		Nomsiz	Lolazor 3-tor
19	Tor ko‘cha		Nomsiz	Maqsad 1-berk
20	Tor ko‘cha		Nomsiz	Obod 1-tor
21	Tor ko‘cha		Nomsiz	Oydinyo‘l 1-tor
22	Tor ko‘cha		Nomsiz	Shirin 1-tor
23	Tor ko‘cha		Nomsiz	Shirin 2-tor
24	Ko‘cha	Navro‘z mahallasi	Nomsiz	Chinor
25	Ko‘cha		Nomsiz	Nurhayot
26	Tor ko‘cha		Nomsiz	Nomsiz Nurhayot 1-tor
27	Ko‘cha		Nomsiz	Tashabbus
28	Tor ko‘cha	Manas mahallasi	Nomsiz	Kumushkent 1-tor
29	Tor ko‘cha		Nomsiz	Kumushkent 2-tor
30	Berk ko‘cha		Nomsiz	Nomsiz Xalqlar do‘stligi 1- berknomsiz
31	Berk ko‘cha		Nomsiz	Xalqlar do‘s tligi 2-berk
32	Ko‘cha	Bunyodkor mahallasi	Nomsiz	Ko‘hinur

33	Tor ko‘cha	Saritepa mahallasi	Nomsiz	Nafosat 1-tor
34	Tor ko‘cha		Nomsiz	Nafosat 2-tor
35	Tor ko‘cha		Nomsiz	Nafosat 3-tor
36	Tor ko‘cha		Nomsiz	Nafosat 4-tor